

Eng ulug‘, eng aziz ayyom muborak!

www.tongyulduzi.uz

TONGYULDUZI

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

2010-yil
30-avgust
N:35
(66784)

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O‘zbekiston Respublikasi bolalar va o‘smirlar gazetasi

ISSN – 2010-6092

SENDAN BOSHLANADI 19 YURTNING ERTASI

*Salom qutlug‘ dargoh, ey aziz maktab,
Ilm-u fan maskani, tabarruk makon.
Senda o‘rganamiz bilim va odob,
Ular yetaklaydi yuksaklik tomon.*

*Keldik o‘qimoqqa, jonajon maktab,
Mehribon onaday och quchog‘ingni.
To‘lib zavq-u shavqqa, orzular yuksak,
Simirgali keldik fan bulog‘ingni.*

*Sendan boshlanadi o‘qish, o‘rganish –
Bilim egallashning eng avj pallasi.
Sen qutlug‘ dargohsan, aziz maktabim,
Sendan boshlanadi yurtning ertasi.*

*O‘qib kelajakda bo‘lamiz olim,
Ziyoli, muhandis, rahbar, shifokor.
Qay bir kasb-hunarni egallasak ham –
Hammasiga chuqur bilim, qunt darkor.*

*Yurtga xizmat qilmoq, bu – oliy niyat,
Doim a‘lo o‘qishdir shiorimiz.
Jahonga yuz tutsin shu ONA VATAN –
Go‘zal O‘ZBEKISTON gul diyorimiz!*

**Eshniyoz BURXONOV,
Qashqadaryo viloyati,
Chiroqchi tumanidagi
34-maktab o‘qituvchisi**

– Bu mashina juda chiroyli ekan, – dedi bobo nevarasiga oynayi jahon orqali namoyish etilayotgan avtomobilni ko'rsatib.

mo'jiza»sining tub mohiyatini anglab yetishga harakat qilgan edilar.

Safar yakunida yurtboshimiz katta ishonch bilan Koreyaning eng katta port shahri Pusanga tashrif buyurib, mamlakatning avtomobil sanoati

markazi «DEU» korporatsiyasi faoliyati



bilan

y a q i n d a n «TULPOR»LARI tanishgan edilar.

Ana shu tashrif chog'ida Prezidentimizda bu ulkan korxonaning mashinalarini o'zimizda ishlab chiqarish g'oyasi tug'ildi.

Mana shu tarixiy tashrifga ham o'n sakkiz yil bo'ldi. Bu yil esa «GM O'zbekiston» kompaniyasining Asakadagi avtomobilsozlik zavodi o'zining ilk mashinasini ishlab chiqarganligining o'n to'rt yilligini keng nishonladi.

O'rta Osiyodagi yagona avtomobilsozlik korxonasi endilikda eng zamonaviy talablarga javob beradigan yangi dizayndagi «Matiz», «Lasetti», «Takuma», «Epika» va «Kaptiva» singari «lochin»larni dunyoning o'ndan ortiq davlatlariga eksport qilmoqda. MDH davlatlarining 104 shahrida Asaka avtomashinalarini sotish yo'lga qo'yilgan.

Endilikda avtomobilsozlik zavodida ishlab chiqarilayotgan mashinalarning dunyo andozalariga to'g'ri kelishi haqida ham qayg'ur-

moqda. 2012-yildan boshlab atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan, eng toza «Yevro-4» ekologik normalarga javob beradigan «Nexia» va «Matiz»larni ishlab chiqarish keng yo'lga qo'yiladi.

Mahalliy lashtirish dasturiga muvofiq yana bir necha yildan so'ng Asaka avtomobilsozlik zavodida tayyorlanayotgan barcha mashinalarning asosiy ehtiyot qismlari o'zimizda tayyorlanadigan bo'ladi.

Hozirgi kunda Toshkent shahriga yondosh Zangiota tumanida «General Motors» kompaniyasi bilan hamkorlikda mashinalar dvigatellarini ishlab chiqaradigan qo'shma korxonada buniyod etil-

«TULPOR»LARI

moqda. Bu korxonada yiliga 360 mingta dvigatel ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'ladi. Boshqa ko'pgina ehtiyot qismlari Andijon va Farg'ona viloyatining bir qator tumanlaridagi korxonalarda tayyorlanmoqda.

Dunyoda mamlakatlar ko'p, lekin samolyot va mashinalar ishlab chiqaradigan davlatlar barmoq bilan sanoqli. Shunday qudratli davlatlar qatorida bizning sevimli O'zbekistonimiz ham borligi bilan har qancha faxrlansak arziydi. Yana bir necha yildan so'ng gazetamizni mutolaa qilayotgan yosh do'stimiz bundandagina chiroyli, xushbichim va zamonaviy mashinamizni boshqarsa, ajablanmang.

**Bu bizning mashina,
dunyoviy til bilan
aytganda:
«Made in Uzbekistan».**

Jabbor RAZZOQOV

YURTIMIZ

– E, shuni ham bilmaysizmi, – dedi nevara bilag'onlik qilib, – bu yangi «Matiz»ku!..

Mustaqillik kuni bayrami arafasida asakalik avtomobilsozlar xalqimizga munosib sovg'a tayyorlashdi. Ular eng zamonaviy, ixcham va chiroyli yangi mashina – «Chevrolet Spark» rusumli avtomobilni ishlab chiqara boshladilar. Darhaqiqat, bugun yurtimiz yo'llarida harakatlanayotgan «Nexia», «Matiz», «Damas», «Lasetti», «Epika», «Kaptiva» singari mashinalarni ko'rgan har bir bolakay o'zimizniki» deya faxrlanib qo'yadi. O'zimizda ishlab chiqarilgan bu yengil mashinalarga qarab, bundan o'n yetti yil muqaddam bo'lib o'tgan tarixiy voqealar yodimga tushadi: o'shanda 1992-yilning ayni yoz pallasi edi. Prezidentimiz Islom Karimov davlat tashrifi bilan 16-18-iyun kunlari Janubiy Koreyada bo'ldilar. Respublika yoshlar gazetasining Bosh muharriri sifatida men ham ana shu safarda ishtirok etishga musharraf bo'lganman.

Davlatimiz rahbari endi istiqloлга erishgan mamlakatimiz uchun har sohada ibrat bo'la oladigan Janubiy Koreya tajribasini o'rganish maqsadida, o'z tashrifini aynan ana shu davlatdan boshlagan edilar. Tashrif davomida yurtboshimiz bir qator firmalar faoliyati bilan tanishib, tadbirkor va ishbilanmonlar bilan uchrashib, oliy o'quv yurtlarida bo'lib, «Koreya

TENGDOSHINGIZ TILAGI

Baxtim mana shu aziz uyim ostonasidan boshlanadi. Men unda tug'ildim, o'sib-unyapman. Bugun men uchun eng ulug', eng aziz bayram. Bayramni a'lo o'qishim, ulkan rejalarim, orzu-istaklarim bilan qarshi o'layapman. Shu yurtga munosib farzand bo'lish eng katta orzum, niyatimdir.

Istiqlolimizning muborak 19 yilligini nishonlar ekanmiz, yuragim faxr va iftixor tuyg'ulariga to'ladi. O'zbekiston dunyoda tinch-totuv yashayotgan ko'pmillatli mamlakat, go'zal va maftunkor diyoy, qadimiy o'lka, eng ulug' zotlarni voyaga yetkazgan muqaddas tuproq, bugun olam havas qilayotgan beqiyos, betimsol makon.

Men o'z xalqim bilan faxrlanaman. Nega? Chunki bu xalq tinchlikni istaydi, bir so'm topsa, bolasi uchun, uning kelajagi uchun yig'adi.

Ota-onamni dunyodagi eng mo'tabar insonlar deb bilaman, chunki ular oila totuvligi, biz bolalar tarbiyasi, bilim olishimiz va yaxshi inson bo'lib yetishishimiz uchun doimo jon kuydiradilar. «Bolam, halol topib, halol ye, biroving haqiga xiyonat qilma, onam desang, odam bo'la», deb o'rgatadi bizning onalar. Bunday onalarni dunyo



vilodalari deb atasak yanglishmaymiz.

Ustozlarimni sevaman, hurmat qilaman. Ular menga ilm bilan birga odamiylikdan, insoniylikdan ta'lim beradilar. Prezident bobongiz sizlarni: «Komil inson bo'lib yetishgin, ulug' ajdodlaringning ishlarini davom ettirgin. Yaratilgan shart-sharoitlardan foydalanib, ilmlil odam bo'linglar», deya nasihat qiladilar. O'ylaymanki, mening ustozlarim dunyodagi eng yaxshi murabbiylardir.

Bepoyon dalalarda bug'doy, paxta, meva va sabzavot yetishtirayotgan dehqonlarimizga ofarin deymiz.

Zavod va fabrikalarda mehnat qilayotganlarni sharaflayman.

Aziz Vatanim sarhadlarini qo'riqlayotgan mard, jasur askar akalarim bilan faxrlanaman.

Bizlarni duo qilib turgan bobo va momolarimiz uylarimizning ziyati, fayzi, barakasidir.

Tengdoshlarim esa mening mehribon do'stlarim, ozod yurtimning aziz farzandlari, o'n to'qqiz yoshga to'lgan navqiron avlod, xalqim va Prezident bobomning baxtli nevaralari.

Barchangizni istiqlolimizning o'n to'qqiz yilligi bilan tabriklayotganimdan mamnunman.

SHAHNOZA

ISTIQLOLNING DASTLABKI YILLARIDA

1991-yil 18-noyabr – O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i qabul qilindi.

1992-yil 2-mart – O'zbekiston Respublikasi Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) ga a'zo bo'ldi.

1992-yil 2-iyul – O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi qabul qilindi.

1992-yil 8-dekabr – O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi e'lon qilindi.

1992-yil 10-dekabr – O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi qabul qilindi.

1993-yil 4-mart – mustaqil davlatning birinchi ordeni – «Sog'lom avlod uchun» ordeni ta'is etildi.

1994-yil 1-iyul – O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasi muomalaga kiritildi.

Ulug'lar yodi

AHMAD FARG'ONIY

Uning «astronomiya asoslari» shoh asari o'n ikkinchi asrdayoq lotin va irait tillariga tarjima qilingan.

«Al-Farg'oniylar jadvallari asarining qo'lyozmasi – Hindistonda, «Oy Yerning ustida va ostida bo'lgan vaqtni aniqlash risolasi» qo'lyozmasi – Qohirada, «Usturlub bilan amal qilish haqidagi kitob»ini hind olimlari saqlab kelishmoqda.

Ahmad Farg'oniylarning Yerning sharsimon shakliga egaligi borasidagi qarashlarini oradan sakkiz yuz yil o'tib amalda ishbotlagan mashhur sayyoh Xristofor Kolumb: «Yer meridianining bir darajasi miqdori haqidagi al-Farg'oniylar hisoblarining to'g'riligiga to'la ishonch hosil qildim», degan dastxat qoldirgan.

GO'ZALLIKKA



Hech yodimdan chiqmaydi. Ancha yillar ilgari olis manzillardan biriga safarga chiqqanimda, bir otaxon bilan hamroh bo'lgandik. Orasta kiyimlari o'ziga yarashgan otaxon kupega kirib kelganda, atrof yorishib ketgandek bo'ldi. U kishi narsalarini chiroyli

JONAJON O'LKAM TABIATI

«Jonajon o'lkam tabiati» deb nomlangan insholar tanlovida tumanimiz o'quvchilari qatori men ham faol ishtirok etdim va «Faxriy yorliq» bilan taqdirlandim. Tumanimizda, yurtimda bo'layotgan obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish va bunyodkorlik ishlarini qog'ozga ko'chirdim.

Bu muqaddas tuproqning har qarichi aziz. Uni asrab-avaylash bizning burchimizdir.

Barchinoy TURG'UNOVA,
Forish tumanidagi 59-maktabning
8-«A» sinf o'quvchisi

USTOZIMNI SOG'INDIM

Salom qadrdonim «Tong yulduzi»! Ushbu maktubni Navoiy viloyatining eng go'zal va obod «Nur chashmasi» joylashgan Nurota tumanidan yo'llayman. Men tuman markazidagi eng katta va chiroyli 18-umumta'lim maktabida tahsil olaman. Sinf rahbarimiz Aziza Nasimovaning maktab hayotida tutgan o'rini alohida e'tirof etishni istardim. Yana bir kundan so'ng qadrdon bilim dargohimiz bag'riga qaytishimizni o'ylab, ich-ichimdan quvonib, hayajonlanib ketyapman. Chunki maktabimni, onamizdek mehribon ustozimiz Aziza opani juda sog'indim.

Barcha tengdoshlarimni mustaqillik bayrami hamda yangi o'quv yili bilan chin dildan muborakbod etaman.

Lazizbek SOBITOV,
Navoiy viloyati, Nurota tumanidagi 18-umumta'lim
maktabining 9-«V» sinf o'quvchisi

YURTGA SODIQ AVLODMIZ

Inson uchun kindik qoni to'kilgan maskan qanchalik aziz bo'lsa, uning kelajagini barpo etishda ishtirok etish shunchalik katta baxtdir. Bizning zimmamizda ham ana shunday mas'uliyatli vazifa bor. Jamiyatning qiyofasini biz kabi ozod va obod Vatan bag'rida voyaga yetgan, bilimli, iste'dodli, kuchli, aqlli va barkamol insonlar belgilab beradi. Umid qilamizki, biz ham ana shunday yurtiga sodiq, barkamol avlod bo'lib voyaga yetamiz!

Umida SEVAROVA,
Surxondaryo viloyati, Denov tumanidagi
16-umumta'lim maktabining
6-sinf o'quvchisi

QUYOSHDEK HAMMAGA TENGG



Ustoz marhamati
quyoshdek hammaga
teng.

Ammo shogird har xil qabul qiladi. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi a'lochisi Ma'suda opa Ahmedova, litsey direktori Dildora Jamolovaning iqtidorli shogirdlari qatorida, Uspenskiy nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa Akademik litseyning 3-bosqich talabasi Azizjon Valiyevning borligi quvonarli.

Yosh skripkachi bugungi kunga qadar ko'plab tadbirlarda Motsart, Bax, Paganini, Chaykovskiy, Xachaturyan kabi kompozitorlarning asarlarini qoyilmaqom qilib chalib, ustozlar ishonchini oqlab kelmoqda.

– Orzuning mas'uliyati bor, – deydi Azizjon. – Orzuga erishish uchun, avvalo xohish, harakat va mehnat zarur. Men ham bunga doimo amal qilib yashashga harakat qilaman.

OLMOS
Surat muallifi Olovuddin ORIPOV

Diyora OTABEKOVA – 1998-yilning iyunida tug'ilgan. U Toshkent viloyati, Oqqo'rg'on tumanidagi 18-maktabda tahsil oladi. Iste'dodli qizaloq bo'sh vaqtlarida she'r yozishni mashq qiladi.

DIYORANING DIYORIGA TILAGI

Biz Diyorani haybatli tog'lar bag'ridan sharqirab oqayotgan soy bo'yida uchratdik. Dam soyning shifobaxsh suvida cho'milib, dam soy chetidagi xarsang toshlar ustida shirin xayollarga ko'milib o'tirgan qizaloq nigohlarini osmono'par qoyalardan sira uzmasdi. U bilan suhbatlashib, yozgi ta'tilni qanday o'tkazgani haqida so'radik:

– Bu yil yozgi ta'tilni juda maroqli o'tkazdim. Chunki dadajonim bizni go'zal yurtimizning bahavo joylariga dam olishga olib bordilar. Vatanimning so'lim tabiati har safar menda o'zgacha taassurot

qoldirgani bois, sayr-u sayohat qilishdan hech zerikmadim. Beixtiyor qo'limga qog'oz va qalam olib, she'rlar yozish sevimli mashg'ulotimga aylanib qoldi. Xumson tog'lariga boqib, ushbu to'rtlikni yozdim:

**Men Vatanni sevaman,
Har dam uni ko'raman.
Vatan mening sevinchim,
Vatan mening quvonchim!**

Diyora bilan uzoq suhbatlashmagan bo'lsak-da, uning so'zlaridan Vatanga bo'lgan cheksiz mehrni his etdik. Suhbatimiz yakunida Diyora barcha tengdoshlarini Mustaqillik bayrami bilan qutlab, «Go'zal diyorumizga hech qachon ko'z tegmasin», deya tilak bildirdi.

GULYUZ

qilib joylab bo'lgach, men tomonga yuzlandi:

– Gurunglashib ketarkanmiz-da, o'g'lim, hamrohing yaxshi bo'lsa, yo'ling unganini sezmay ham qolasan kishi.

Otaxon ko'pni ko'rgan, bama'ni odam ekan. Turli rivoyatlar, ibratli voqealarni so'zlab ketdilar.

INTILIB O'shanda har safar uzoq tuyuladigan manzilimga qanday yetib qolganimni ham bilmay qolgandim. Safar davomida u kishi bilan ota-boladay bo'lib qolgandik. Xayrlashish oldidan xuddi o'z farzandlaridek mehr bilan ko'zlarimga qarab, shunday degandilar:

– O'g'lim, hali yoshsiz, hayotingiz oldinda. Sizga bir gapni aytaman. Unga amal qilsangiz, yaxshi bo'ladi. Hayotda hamisha go'zal narsalarga qarashga odatlaning, quloqlaringizni ham yoqimli va ma'nili gaplarni eshitishga o'rgating, shunda hamisha bahri dilingiz ochilib yuradi...

Bu voqeaga ancha yillar bo'lganiga qaramay, otaxonning so'zlari hali-hanuz qulog'im ostida jaranglab turibdi. Bu gaplarga qanchalik amal qildim yoki yo'q, bir narsa deymayman. Ammo

istiqlol yili tug'ilgan farzandim va uning tengdoshlariga ochiqchasiga havasim keladi.

Istiqlol farzandlari! Siz tug'ilib, atak-chechak qila boshlagan kundan boshlab o'z madhiyamizni tinglay boshladigiz, betimsol gerbimiz va muqaddas bayrog'imizga qarab ulg'aydingiz. Ko'z oldingizda kun sayin ulug'vor manzaralar namoyon bo'lib, har bir yangi kuningiz murg'ak qalbingizda faxr va iftixor tuyg'usini uyg'otuvchi xabarlar eshitish bilan boshlanyapti. Mamlakatimiz g'alla mustaqilligiga erishdi. Yurtimiz hududida ulkan neft zaxiralari topildi. Mamlakatimiz yigirmadan ziyod nufuzli davlatlar qatorida avtomobil ishlab chiqarishni yo'lga qo'ydi.

YASHANG

Qishloq xo'jaligi va sanoatda katta muvaffaqiyatlar qo'lga kiritildi... Bunday ro'y-xatni yana uzoq davom ettirish mumkin, aziz bolajon!

Bugungi kunda mamlakatimiz ulkan qurilishlar maydoniga aylangani ham ayni haqiqat. Qadriyatlarimiz o'zligiga qaytdi. Dovrug'i dunyoga taralgan buyuk allomalarimiz maqbaralari qayta ta'mirlanib, muqaddas qadamjolariga aylantirildi.

Shaharlarimiz dunyo andozalariga mos ravishda qurilgan binolar hisobiga yanada go'zallashdi. Ravon yo'llar, ulkan ko'priklar barpo etilib, uzoq'imiz yaqin bo'ldi. 19 yillik fursat ichida O'zbekistonni dunyo tanidi.

Siz esa bu jahonshumul o'zgarishlarga guvoh bo'lyapsiz, bolajonlarim.

Bahri dilingiz ochilgani rost bo'lsin!

Istiqlolimizning ilk nihollari bo'lgan siz bolajonlar, bugun voyaga yetdingiz. Ildizlaringiz yerga chuqur botgan.

Zamonaviy maktab, litsey va kollejlarda olgan bilimlaringiz tufayli har sohada peshqadamligingizni, dunyodagi tengdoshlaringizdan aslo kam emasligingizni namoyon etdingiz.

Yaqinda yana bir katta sinovdan o'tdingiz. Oliy o'quv yurtlariga kirish uchun imtihon topshirib, talaba degan sharafli nomga sazovor bo'ldingiz. Kelajagi porloq yurtimizda go'zallikni ko'ra oladigan, uning qadriga yetadigan barkamol avlod voyaga yetmoqda.

Istiqlolimiz boqiy bo'lib, uning nihollari gurkirab o'saversin.

Yusuf ABDULLAYEV

BIR O'LKAKI...

**Bobo bu yil 1-sinfga qadam
qo'yadigan nabirasini imtihon qilib
ko'rdi. Avvaliga matematika, ona
tilidan, so'ngra:**

- Qani ayt-chi, Alisher, sen qayerda yashaysan? - deb so'radi.
- O'zbekiston Respublikasida, bobojon, - shoshib javob berdi nabira. -
Yurtimiz 19 yoshda, bayramga olib boraman, degandingiz, - deya qo'shib
qo'ydi va bobosining bo'ynidan mahkam quchoqlab oldi.

Bobo ham shaharni aylanish istagida edi. Nabirasining eslatishi ayni
muddao bo'ldi...

- Voy bo', bobojon, qarang, muncha katta uy, birinchi ko'rishim, - Alisher
hayratlanib ulkan binoga tikilib qoldi.

- Amir Temur xiyobonida joylashgan bu bino Xalqaro anjumanlar saroyi
deyladi. Bu yerda o'z nomi bilan xalqaro anjuman va konferensiyalar,
respublikamizda faoliyat yuritayotgan xalqaro tashkilotlarning
hamkorlikdagi tadbirlari, uchrashuvlari o'tkaziladi. Yaqinda bu joyda
Shanxay hamkorlik tashkilotlarning katta tadbiri bo'lib o'tdi.

Mana bu egizaklar dunyoda yagona hisoblanadi. Toshkent kurantlari deb
nom olgan.

Bobo nabirasini yetaklab, poytaxtimizning obod ko'chalaridan borar ekan,
bir gapni takrorlard: «Bolajonim, bu bir o'lkaki, ta'rifiga til ojiz», deya yangi
barpo etilgan, etilayotgan ko'rkam, muhtasham binolar bilan tanishtirdi.
Bunday ezgu ishlarning barchasi, avvalo, inson uchun, uning farovon yashashi,
shuningdek, yurt ravnaqi va taraqqiyoti uchun harakat ekanligini ko'zida yosh
bilan ta'kidladi.

Alisher bobosining hayajon bilan so'zlagan hikoyasini diqqat bilan tingladi
va:

- Mening maktabim ham yap-yangi, bobojon, - deya qo'shib qo'ydi.
- Ha, barakalla, yangi maktab-u yangi partalar, yorug' sinf xonalari-yu o'quv
qurollari seni intizorlik bilan kutib turibdi. Bolajonim, yodingda tut, jonajon
yurtimizning ulug'ligi, xalqimizning totuvligi dunyoga mashhur. Sen ham bu
muqaddas yurtga munosib farzand bo'li!


Feruza SOYIBJON qizi



Oliy Majlis Qonunchilik palatasi



Xalqaro anjumanlar saroyi



Marg'ilon shahridagi 32-maktab



Yoshlar ijod saroyi

Tariximizni o'rganamiz

Alisher Navoiy bobomiz asarlarini o'qib, dunyo va
olamni, Bobur Mirzo she'riyatini tinglab, Vatan, yurt
qadrini anglashga chog'lanamiz. Umuman, kitob o'qish
odamga zavq bag'ishlaydi, huzur beradi.

Taniqli olim, adabiyotshunos Abduqahhor Ibrohimovning
«Bizkim, o'zbeklar...» asaridagi bir tafsilot xotiramda
abadiy muhrlanib qolgan. Shu voqeani o'qib, dunyo
topgandek zavqlanganimni yashirmayman.

Muallifning hikoya qilishicha, 1967-yilning dekabr
oylarida xizmat safari bilan Moskvaga borganda,

bir kütob do'koniga kirib,
yostiqdek keladigan kütobni
uchratib qolgan. Bu
Amerikaning Chikago
shahrida 200 ming nusxada
chop etilgan «Jahon qomusiy
lug'ati» kitobi ekan. Sotuvchi uning

chin xaridor ekanligini ko'rib: «Bu kitobda tilga
qolmagan hech narsa qolmagan. 180 ming so'zga izoh
berilgan. Olsangiz, pulingiz o'zingiz bilan ketadi», deya
uni asarni xarid qilishga undaydi.

Targan gapki, bunday paytda elim, xalqim degan ziyoli
shaxsni o'ylaydi. Abduqahhor aka ham: «Shuncha ming
so'z izohlangan ekan, o'zbek haqida ham biror gap
bormikan?» degan qiziqish bilan kütobning ikkinchi
jildini varaqlab ko'radi va undagi shunday so'zlarga
ko'zi tushadi:

«O'ZBEK - jahon xalqlari orasida birinchilardan bo'lib,

turkiy xalqlar o'rtasida birinchi bo'lib o'troqlashgan, madaniy turmush
kechiruvchi, jahon sivilizatsiyasiga hissa qo'shgan millat...»

Buni qarangki, biz jahon xalqlari orasida birinchilardan bo'lib madaniy
turmush darajasini belgilagan ajdodlarning avlodlari ekanmiz. Dunyo
bo'yicha ilk sug'orma dehqonchilik Nil, Dajla, Furot va Amudaryo, Hind,
Xuanxe va Yanszi daryolari havzalarida vujudga kelgan. Amudaryoning
quyi oqimi - Xorazmda bundan 4 ming yil avval ham sug'orma dehqon-
chilikning rivojlanganligi haqida ma'lumotlar bor. Umuman olganda,
qadim yurtimiz sug'orma dehqonchilik madaniyatining ilk beshiklaridan
biri hisoblanadi. Shuning o'zi ham biz o'zbek-
larning dunyo xalqlari orasida birinchilardan
bo'lib o'troqlashganimizga yaqqol dalildir.

Yirik olim Muhammad G'iyosiddin o'zining
«G'iyos ul-lug'at» asarida yozishicha, Nil,
Furot, Dajla, Amudaryo jannatning to'rt
arig'idir. Sirdaryo Amudaryoning eng
katta irmog'i bo'lgan, ya'ni bu daryo
Orolga emas, balki Qizilqumda Amudaryoga birlashib, Kaspiyga borib
quyilgan. Ma'lumotlarga qaraganda, keyinchalik daryo uzanini buzib,
Kaspiydan ajratib tashlangan.

Bu gaplarni nima uchun esga oltaymiz? Demak, Amudaryo behudaga
jannat ariqlaridan biri deb baholanmagan. Bu o'rinda madaniy hayotni
vujudga keltirgan ulug' ajdodlarimizning xizmatlari beqiyosdir.
Mustaqillik bizga o'z tariximiz haqida erkin va xolisona yozishga imkon
yaratib berdi. Hali o'rganadigan jihatlarimiz ko'p. Mabodo sizlarda,
uyingizda tariximizga oid kitoblar bo'lsa, ulardan iqtibos olib, bizga
yuboring. Tariximizni birgalikda o'rganamiz. Bu galgi taassurotlaringizni
esa har galgidek kutib qolamiz.

O'z muxbirimiz

180 MING SO'ZLI KITOB



«NIHOL» BERGAN IMTIYOZ

«Nihol!» Bugungi kunda bu nufuzli Davlat mukofotiga sazovor bo'lishni orzu qilmaydigan yosh, umidli san'atkorlar topilmasa kerak. Bu yilgi «Nihol» mukofoti sohiblari orasida yoshlarimizning sevimli estrada guruhi «Dur-Dona»ning ham borligidan bir quvongan bo'lsak, guruh a'zolaridan bir emas, ikki nafari istiqloq tengdoshi ekanligidan yanada mamnun bo'ldik.

Bayram arafasida guruh a'zolarining yumushlari yanada ortgan:

Mustaqillik bayrami tantanalarida «Istiqlol tengdoshlari» qo'shig'i bilan ishtirok etish uchun qizg'in hozirlik ko'rishyapti. Shunday bo'lsa-da, tahririyatimizga kelib, o'z taassurotlarini gazeta muxlislari bilan o'rtoqlashishga fursat topa olishdi. Keling, dastlab ular bilan tanishib olaylik:

Aziza NIZAMOVA, Rushana ASTANOVA, Ozoda RAHMONOVA, Mira FATULLAYEVA.

– Yuksak mukofot muborak, qizlarjon! Suhbatimiz avvalida guruhingiz, uning nomi haqida to'xtalsangiz.

– Guruhimiz respublika miqyosida o'tkazilgan tanlov asosida shakllangan, desak, xato bo'lmaydi. Yosh estrada qo'shiqchilari tanlovida respublikamizning turli burchaklaridan ko'plab kuchli ovoz sohiblari ishtirok etishgandi. Biz ham ana shu tanlovda g'olib chiqib, o'zaro tanishib qoldik. 2-3 oy davomida samimiy do'stlashib, birgalikda qo'shiqlar kuylab yurdik. Prodyusserimiz Rustam Shamsutdinovning taklifiga binoan guruh tuzishga ahd qildik. Uni qanday nomlash haqida esa uzoq o'ylandik. Axir nomga ko'p narsa bog'liq-da, nihoyat, bir to'xtamga keldik: guruhimizni «Dur-Dona» deb nomlaymiz. Dur – noyob, nafis, qimmatbaho toshning



nomi, «dona» esa bitta, yagona ma'nosini bildiradi. San'at olamida o'z yo'limiz, ovozimiz, betakror qo'shiqlarimiz bo'lishini niyat qilib, guruhimizni shunday nomladik.

– O'zingizdan qolar gap yo'q, «Nihol» mukofoti tanlovining respublika bosqichida saralarning eng saralari ishtirok etishadi. Sovrindorlar safida bo'lishga umid qilganmidingiz?

– Darhaqiqat, uch bosqichda o'tgan bu nufuzli tanlov juda ko'plab taniqli, iste'dodli san'atkorlar, kuchli ovoz, soz sohiblari ishtirok etishdi. Shunday bo'lsa-da, Kavsar Turdiyeva so'zi, Alisher Rasulov musiqasi bilan aytiladigan «Vatan» qo'shig'imiz ustida tinimsiz ishlab, biz ham g'alabadan umidvor bo'ldik. Axir umidsiz

yashab bo'larkanmi?! Usiz biror natijaga erishmoq dushvor.

Niyatimiz xolis ekan, tanlovning estrada yo'nalishi bo'yicha sovrindorlari qatoridan o'rin oldik. 14-avgust kuni muhtasham «Istiqlol» saroyida O'zbekiston Xalq artisti Ozodbek Nazarbekov bizga yurtimizning oliy mukofotini topshirayotganidagi quvonchimizni, hayajonimizni so'z bilan ifodalash mushkul.

– Bilishimcha, bu Sizing san'at olamidagi ilk yutug'ingiz, shunda y emasmiz?–degan savolimizga qizlar:

– Guruh bo'lib birlashganimizning o'ziyoq bu olamdagi birinchi yutug'imizdir, – deya javob berib, hayratimizni yanada oshirishdi.

– Estrada yo'nalishidagi qo'shiqlaringiz ohangida milliylik ufurib turadi.

– Niyatimiz ham shu-da, ustoz san'atkorlarimiz kuylagan milliy qo'shiqlarimizni yangicha talqinda, aranjirovkada yoshlarimizga yetkazish. «Majnunol», «Cho'l shamoli», «Qaydasan?» kabi qo'shiqlarimiz fikrimizga dalil bo'la oladi.

– Mustaqillik bayramining 19 yilligi

Maroqli suhbat uchun minnatdorehlik bildirib, qizlar bilan sayrlasharkanmiz, ortlaridan faxr va iftixor bilan qarab qoldik: odimlari sha'cdam, nigohlari o'ktam, maqsadlari oydin o'zbeгим yoshlari!

QO'G'IRCHOQ O'YNAMAGAN qiz

Muxlisa FAYZ istiqloq tengdoshi. Hozirda Toshkent Davlat sharqshunoslik institutining 3-bosqichida tahsil olyapti.

Iye, o'n to'qqiz yoshli qiz qanday qilib 3-bosqichda o'qishi mumkin, deya ajablanayotgandirsiz?! Bizning ham Muxlisaga bergan birinchi savolimiz shunday bo'ldi. O'zining aytishicha, 6 yoshga to'lib-to'lmay 1-sinfga qadam qo'yibdi.

Muxlisa bolaligida tengdosh qizaloqlar kabi qo'g'irchoq ham o'ynamagan, uning sevimli o'yinchoq'i opasining eski portfeli bo'lgan ekan. Hali harflarni tanimasidanoq kitobdagi rangli rasmlarga qarab

o'zicha ertaklar to'qir, qo'liga qog'oz, qalam olib, allanimalarni «yozaverarkan-yozaverarkan». Qizidagi o'qishga, yozishga bo'lgan ishtiyoqni payqagan otanonasi uni barvaqtroq maktabga berishga ahd qilishibdi.

– Avvaliga, o'zidan bir, bir yarim, hatto ikki yosh katta bolalar bilan o'qib, maktab dasturini o'zlashtirilmay, qiynalib qolmasmikin, degan xavotirga tushgandik, – deydi Muxlisaning otasi teatrshunos Farhod Fayziyev. – Lekin u o'qishni eplab ketdi, tez orada a'lochilar safidan o'rin oldi...


Muxlisa Fayz bilan istiqloq bayrami arafasida suhbatlashib, uning serqirra iqtidor egasi ekanligiga amin bo'ldik. Ingliz tilini mukammal o'rganib, endilikda yapon, koreys tillarini o'rganishga intilyapti. Yaqinda uning «Chin do'st» nomli ssenariysi bosmadan chiqdi, yozgan ertaklari turli nashrlarda chop etilyapti.

– Muxlisaxon, nega aynan koreys tiliga mehr qo'ydingiz?– qiziqib so'raymiz undan.

– Biror xorijiy tilni o'rganishga kirishsam, o'sha millatning faqat tilini o'rganibgina qolmay, xalqining tarixi, madaniyati, urf-odatlarini ham chuqur o'rganishga harakat qilaman. Koreys tilini o'rganish jarayonida bu xalq bilan millatimiz o'rtasida o'xshashlik ko'pligini payqadim. Kattalarni

hurmatlash, qizlarimizning odob-axloqi, qo'ying'chi, turmush tarzimiz, urf-odatlarimiz o'xshash. Ertaklarimizdagi o'xshashliklarni qidirib, bir nechtasini tarjima qildim. O'z oldimga qo'ygan

maqsadlarim ulkan: katta-katta romanlarni ham tarjima qilib, o'zbek kitobxonlariga yetkazish,



chetalarda tahsil olib, u yerdagi ta'lim tizimini o'rganish niyatidaman...

Muxlisaning orzulari ijobatiga ishonamiz. Zero, mustaqil diyorumizda buning uchun barcha sharoitlar muhayyo.

Sahifani Feruza JALILOVA tayyorladi

QALDIRG'OCHLAR QO'SHIG'I

Ular har gal bahorda shoshilib kelishadi. Darvozamga bosh urib g'ururlanib uchishadi. Bizni sira unutmay, sog'inib chug'urlab uchishadi. Ayvonimning ikki kunjida bir juft yangi oshyon paydo bo'ladi. Ular oshyonini gumbazga qiyoslab qurishadi. Qaldirg'ochlar mitti tumshug'ida yurtning tuprog'ini loy etib, borliqqa ko'z-ko'z aylab keltirishadi. Men ularni kuzataman. Chug'urlashib, loyni zavqlanib tashiydi. O'ylayman, bu mitti qushlarning tuproqni bu qadar sevib e'zozlashida qanday sir bor ekan?.. So'ng, ayvonimga Vatan tuprog'idan ko'ztumordek etib qurilgan qaldirg'ochlar makoni paydo bo'ladi. Qalam qitirlaydi, qaldirg'ochlarning zavqi zavqimga-zavq qo'shadi. «Vatan darsi» she'ri dunyoga keladi. U yurtning chor tarafidan kelayotgan ilk qaldirg'ochlarning she'riy qo'shiqlariga jo'r bo'lib yangraydi...

VATAN DARS

Qaldirg'ochlar menga Vatan darsin berdi,
Men tingladim ular bergan sabog'ini.
Ayvonimga ko'ztumordek osib qo'ydi,
Oshyon qilib ona yurtning tuprog'ini.

Bu holatdan juda qattiq o'yga toldim,
Tunlar yotsam ko'z oldimda turar Vatan.
Ey mitti qush, san'atingga qoyil qoldim,
Do'stlashaylik umr bo'yi sening bilan.

Eshiklarim sizlar uchun ochiq erur,
Qanot qoqib kulbam aro kelavergin.
Sen bergan dars menga Vatan darsi bo'lsin,
Qancha darsing bo'lsa, yana beravergin.

AXTAMQULI

ZAVQQA TO'LDIM SENI SUYGANIM SAYIN

O'zing panoh bo'lding har bir onimga,
Ma'rifatni hamroh aylab yonimga.
Mehr bo'lib oqding mening qonimga,
Ey shirin jonim.

Gulzorlarda gullaringni quchayin,
Zavqqa to'ldim seni suyganim sayin.
Osmoningda erkin qushdek uchayin,
Bog'-u bo'stonim.

Qanot bergin, orzularim ushalsin,
Tinchlik guli yo'llarimga to'shalsin.
Istiqloling kundan-kunga yuksalsin,
O'zbekistonim.

Nazokat MIRHABIBOVA,

Toshkent shahridagi 1-pedagogika kolleji talabasi

TONG

Subhidam purviqor tog'lar ortidan,
Mo'ralab boshini ko'tardi quyosh.
Nofarmon gullarning titroqlarida,
Shabnam yosh to'kadi berolmay bardosh.

Falakning ko'ksidan to'kilgan nurlar,
Borliqqa baxsh etar eng totli huzur.
Tabiat jilvasin etib namoyon,
Maysalar bo'y cho'zar aytgancha shukur.

Olamni yoritgan bu bobo quyosh,
Har tongda samoda porlab turadi.
Har zarrasi qalga bo'lgandeksirdosh,
Ezgulikka mudom chorlab turadi.

Baxtiyor NURALIYEV,

Qibray akademik litseyining
1-bosqich o'quvchisi

SEN GO'ZALSAN

Mustaqil yurtimga tilayman tinchlik,
Ozod yurtim, go'zal maskanim.
Shodligimga qo'shadi shodlik
O'n to'qqizga to'lgan Vatanim.

Bag'ri cheksiz O'zbekistonim,
Zavq olaman tuproqlaringdan.
Sen go'zalsan aziz hamdamim,
Mehrinqar buloqlaringdan.

Madina JO'RAYEVA,
Farg'ona viloyati, Buwayda tumanidagi
39-maktabning 6-«A» sinf o'quvchisi

MAKTAB

Qadam qo'yar maktabga
Jajji, quvnoq bolalar.
Alifbodan boshlanar,
Barcha sir-u saboqlar.

Yillar o'tib qalblarda,
Bilim niholi unar.
Bilimlari bir kuni,
Katta hayotga yo'llar.

Shahnoza HAMIDULLAYEVA,
Toshkent shahar, Uchtepa tumanidagi
295-umumta'lim maktabining 7-«A»
sinf o'quvchisi



VATANIM


Hayotim har oni mazmuni bo'lib,
Ko'nglimni yoritgan durdonam sensan.
Ko'nglim osmonida quvonchga to'lib,
Vatanim, jonginam, yagonam sensan.

Har qadamda hurligim ko'rib,
Qayda bo'lsam mehring sezaman.
Sendan olis bo'lsam, sog'inib,
G'ururlanib bag'ring kezaman.

Dilshoda ABDULLAYEVA,

Farg'ona viloyati, O'zbekiston tumani,
Yaypan shahri

MEHR TAFTI



(Hikoya)

Yozda qo'shni viloyatda istiqomat qiluvchi xolamlar yangi imoratga ko'chib o'tganliklari bois uy to'yi qiladigan bo'lishdi. Onam tibbiyot kollejida ishlaganliklari uchun yaqinlashayotgan imtihonlarga tayyorgarlik ko'rar edi. Shuning uchunmi, to'yga men, buvam, buvi va tog'alarim boradigan bo'ldik. Manzil olis, bizning u yerda uzoq qolib ketishimiz turgan gap edi.

Ayniqsa, biz bolalar uchun turli o'yinlarga, turfa hangomalarga boy bo'lgan to'ydan so'ng buvam va tog'amlar qaytib ketishdi.

Xolamning men tengi farzandlari bilan shataloq otib, ikki-uch kunning qanday o'tganini sezmay qoldim. Ammo to'rtinchi kuni tongda erinibgina o'rnimdan turdim. Bu vaqtda buvimlar nonushta qilar, allanimalar

haqida kulishib suhbatlashardi.

Yuz-qo'limni yuvgach, buvimning pinjiga tiqildim.

— Oyimni sog'indim. Uyga ketishni xohlayman, — deya xarxasha qila boshladim. Kuyovidan xijolat tortganidan bo'lsa kerak, past ovozda buvim meni koyiy boshladi. Buvimdan qo'rqqanimdan ham biroz arazlaganim bois tez-tez nonushta qildim-u, ko'chaga yugurdim...

Tushda buvim kiyimlarimni tugunga joylash bilan ovora edi. Sevinchim ichimga sig'may so'radim:

— Ketayapmizmi, buvijon?

— Ha, qo'zichog'im, ketyapmiz. Ertaga azonlab yo'lga chiqamiz. Oyjoningni sog'inib qolibsana-ku, axir, — buvimning so'nggi so'zi istehzo aralash aytilgan bo'lsa ham ranjimadim...

Samarqandgacha avtobusda qariyb

yarim kunlik yo'l edi. Buvim toliqqanimni sezdi shekilli: — Biroz mizg'iy qol, bolajonim. Yetsak, o'zim uyg'oitaman, — deb boshimni silab qo'ydi.

Nihoyat, avtobus so'nggi bekatda to'xtab, yo'lovchilar uni tark eta boshlashdi. Mashinadan tushgan zahoti yuragim xapriqib, atrofga javdiray boshladim. Shu payt biz tomon kelayotgan onamni ko'rdim-u, quchog'iga otildim. Onam yuz-ko'zlarimdan o'pgandagina uning qaroqlari yoshga to'lganini sezdim. Men ana shu murg'ak chog'imdayoq ona mehrining qudrati, uning sog'inchi farzandning oddiygina qo'msahidan kuchli ekanligini dildan his etgandim.

Sirojiddin XALILOV,
Samarqand viloyati, Ishitxon tumanidagi
1-maktab o'quvchisi



Xushxabar

ENG KUCHLISI BO'LDI

Bolajonlar, sizga Singapur maydonlarida tengsiz kurashlar ostida o'tgan yoshlar olimpiadasi haqida qisqacha ma'lumot bermoqdamiz.

Singapur arenalari chindan ham bu yil yozgi sport musobaqalari mavsumiga aylindi. Ko'hna qit'aning yana bir maydonida bir qancha nufuzli turnirlar ham bo'lib o'tdi. Vadim Menkovning Singapurdan jahon chempioni bo'lib qaytishi esa Istiqbol bayramiga to'g'ri keldi.

Darvoqe, siz Vadim Menkov 2009-yili Polshaning Poznan

shahrida dunyoning 71 davlatidan kelgan eng kuchli baydarka va kanoeda eshak eshuvchi sportchilar o'rtasida o'tkazilgan jahon chempionatida zafar quchganini ham bilasiz-a? 2010-yil esa iqtidorli sportchimiz uchun shiddatli bahslarda 1000 metr masofaga eshak eshish bo'yicha jahon chempioni degan unvonni loyiq ko'rdi. Eng quvonarlisi, Menkovning Singapurdagi oltin medali yurt shodiyonasi kunlarida qo'shaloq tuhfasi bo'ldi.

Singapur shahrida birinchi yoshlar yozgi olimpiada o'yinlari bo'lib o'tdi. Dunyoning ikki yuzdan ortiq mamlakatidan kelgan yoshlar o'zaro bellashgan mazkur nufuzli olimpiada o'yinlarini barchangiz maroq bilan tomosha qilgandirsiz. Ular orasida o'zbekistonlik o'smir yig'u-qizlarning borligi quvonarli.

Ayniqsa, bahslarda yurtimiz sharafigini munosib himoya qilayotgan tengdoshlaringiz o'z kuchi, salohiyati va iqtidorini namoyish eta oldilar. Garchi umumijamoa xazinasiga beshinchi kumush medalni dzyudochimiz Mansur Mo'minxo'jayev keltirgan bo'lsa-da, yoshlarimiz maydonda oltin medal uchun kurashni davom ettirdilar.

Uning tengdoshi 69 kilogramm vazn toifasida ringga chiqqan havaskor bokschi Ahmadjon Mamajonovning Singapur olimpiadasida finalga yo'llanma olishi barchamizni sevintirdi.

Biz ham tengdoshlaringizni sevinch va iftixor ila poytaxt aeroportida bugun tantanali kutib olamiz. Ularning g'alabasi Mustaqilligimizning 19 yillik to'yiga munosib sovg'adir.

Ma'mura MADRAHIMOVA tayyorladi

Yoshlar olimpiadasi

TO'YIMIZGA TO'YONA



GO'ZALNING GO'ZAL BASTI

Go'zal Abdulatipova o'n ikki yoshni qarshiladi. Uning sportga bo'lgan ishtiyoqi baland. Shuning uchun bo'lsa kerak, u 2008-yildan buyon uzluksiz JAR sport majmuasidagi taekvando to'garagining a'zosi. Qisqa vaqt mobaynida Go'zal taekvandoning ancha murakkab mashqlarini o'rgandi. Avval tuman, keyin esa shahar va shaharlararo musobaqalarda qatnashib, faxriy o'rinlarni qo'lga kiritdi. U Jizzaxda o'tkazilgan musobaqalarda faxriy birinchi o'rinni egallashga muvassar bo'ldi.

Go'zalning orzulari cheksiz. Sport bilan birga rasm chizish, ingliz tili, rus tili va pazandalik to'garaklariga ham qatnashib kelayapti.

Ayni kunda Shayxontohur tumanidagi 186-maktabning 7-«A» sinfidagi tahsil olayotgan Go'zalning go'zal qaddi-bastiga tikilib, chaqqon qizimizga ko'z tegmasin degimiz keldi.



XAYR TA'TIL, SALOM MAKTAB!

Yozgi bolalar ozomgohlari ham o'z ishlarini yakunladi. Shu munosabat bilan Jizzax viloyati, xalq ta'limi boshqarmasi Davlat ta'lim standartlari monitoring bo'limi bosh mutaxassisi Zo'ir aka Sattorov bilan suhbatlashdik. — Bu yil dam olish mavsumi qanday o'tdi? Jizzax viloyati bo'yicha qancha o'quvchi shahardan tashqari va maktab qoshidagi ozomgohlatga jalb etildi.



— Yoz bolalarning miriqib dam olishlari, turli-tuman tadbirlarda ishtirok etib, ijodiy va tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirishlariga keng imkon beruvchi davr. Oromgohlarda faoliyat ko'rsatgan barcha tarbiyachi va yetakchilar yoz davomida o'z mahoratlarini to'la namoyon etib, bola shaxsiga yaqindan yondashib, ularda ijodiy xislatlarni shakllantirishga turki bo'luvchi qiziqarli ishlarni amalga oshirdilar.

Bu yil viloyatimiz bo'yicha 2848 nafar o'quvchi yozgi oromgohlarda dam oldilar. Maktablar qoshida tashkil etilgan kunduzgi va qisqa muddatli guruhlariga 121 mingdan ziyod o'quvchilar jalb

etildi. Bu maskanlarda o'quvchilar o'z vaqtlarini unumli va maroqli o'tkazdilar. «Lochin», «Aloqachi», «Jilg'acha», «Zangori olov», «Tabassum», «Paxtakor» oromgohlari o'rtasida sportning futbol, tennis, shashka, shaxmat, voleybol, basketbol turlari bo'yicha sport musobaqalari tashkil etilib, g'oliblar Diplom hamda qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandilar. Bundan tashqari, bolalarning aqllarini charchatishda ma'naviyat o'chog'i bo'lmish kutubxonalarining alohida o'rni bor. O'quvchilarning yoshlariga qarab turli xil badiiy kitoblar

va bolalar nashrlari «Gulxan», «G'uncha», «Tong yulduzi» gazeta-jurnallarining yangi sonlari bilan muntazam ta'minlab turdik. Kutubxonada «Kitobim — o'ftobim», «Ertaklar — yaxshilikka yetaklar», «Ibratli maqollar» ko'rik-tanlovi bo'lib o'tdi.

Maktablar qoshida tashkil etilgan kunduzgi oromgohlar o'z faoliyatini 1-iyundan boshladilar. Bu yerda ham turli to'garaklar tashkil etildi. Musiqqa, shaxmat, shashka va sportning boshqa yo'nalishlari bilan o'quvchilar vaqtlarini mazmunli va quvnoq o'tkazdilar.



— Oromgohlarda bu yil bilan o'tgan yilgi sharoitlar o'rtasida farq bo'ldimi?

— O'tgan yili rejalashtirilgan ishlarimizni to'liq bajara olmagan edik. Bu yil oromgohlarga juda katta e'tibor qarattildi. Ayniqsa, 29-«Mehribonlik uyi»ga qarashli «Lochin» oromgohi yuz foiz ta'mirdan chiqarildi. Bu yilgi rejalashtirilgan ishlarimizni a'lo darajada bajardik. Tarbiyachilar va o'quvchilarning o'zlari bilan ham tashkil etilgan sharoitlar haqida muntazam suhbatlashib turdik.

Bolalar yaratilgan sharoitlardan mamnun edilar. Shuning uchun dam olgan o'quvchilarning ota-onalari oromgoh daftariga juda ko'p tashakkurnomalar yozib qoldirdilar.

Yozgi ta'tilda dam olib, kuch-quvvatga to'lgan o'quvchilarni endilikda o'z maktablari sog'inch bilan kutmoqda. Yaxshi kayfiyat, zukkolik bilan egallangan ilm nurlari istiqbolga olib boradi.

Barno RUSTAMOVA

«BILIMLAR MASKANI»

AYLANMA KROSSVORDI



1 Shaklda belgilangan xonadan raqam atrofiga soat mili yo'nalishida: 1. Kitobcha shaklidagi, muqovali yozuv ashyosi. 2. O'zbek ma'rifatparvar shoiri. 3. O'zbekiston Qahramoni, xalq shoiri. 4. Mumtoz muafakkir shoir, quyidagi hikmat muallifi: *Bilmaganni so'rab o'rgangan olim, orlanib so'ramagan o'ziga zolim.* 5. O'zbek shoiri, dramaturgi va jamoat arbobi, maktablar ochib, ularda dunyoviy fanlarni o'qitgan, darsliklar yozgan ma'rifatparvar. 6. Eng birinchi darslik. 7. Sport o'yini turi. 8. Tafakkur yuritishning asosiy qonunlari va shakllarini o'rganuvchi fan. 9. Tirik organizmlarning hayoti va rivojlanish qonunlarini o'rganuvchi fan mutaxassisi. 10. Hamma nuqtalari markazdan baravar uzoqlikda bo'lgan yopiq egri chiziq. 11. Berilgan dars va o'zlashtirish yozib boriladigan qaydnoma. 12. Bilim va tarbiya beruvchi – ustoz. 13. Yer shari nuxsasi, o'quv quroli. 14. Asos deb ataladigan muayyan sonni darajaga ko'targanda, berilgan sonni hosil qilish mumkin bo'lgan daraja ko'rsatkichi. 15. Ta'lim-tarbiya va madaniy-ma'rifiy muassasalar tizimi. 16. Vatandoshimiz, o'rtas asr qomusiy olimi, algebra fani asos-

2 chisi. 17. She'riy vazn turi. 18. O'zlashtirilgan dars bo'yicha amaliyot o'tkazish. 19. Bilim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni. 20. Materiyanning tuzilishini, eng umumiy xossalarini va uning harakat qonunlarini o'rganuvchi fan. 21. Davlat ramzi. 22. Badiiy adabiyotning uch asosiy turlaridan biri, she'riyat. 23. O'tiladigan darsning avvaldan belgilangan yo'l-yo'rig'i, uni amalga oshirish tartibi. 24. Yer sathining shartli tasviri. 25. Ildiz chiqarish amalining belgisi va shu amalning natijasi. 26. Darsning o'rni va vaqti qayd etilgan ma'lumotnoma. 27. Qadimgi yunon matematigi, o'zining nomi bilan ataluvchi teorema muallifi bo'lgan olim. 28. Fizikaning yorug'lik hodisalari qonuniyatlarini o'rganuvchi sohasi. 29. To'liqsiz o'rta maktabni tugatgach, o'quvchilar ilm olishni davom ettiradigan bilim maskani.

MUAMMONOMA

Avvalo quyida ta'riflanib, raqamlarda ifodalangan kalit so'zlarini toping:

1. Dars mashg'ulotlari o'tkaziladigan xona – 15,3,2,19.

3 2. So'zlar orqali bayon etilgan fikr –10,1, 20.
3. Tajribalar, amaliy mashg'ulotlar o'tkaziladigan, zarur apparat va asboblardan jihozlangan xona –11,1,6,5,13,1,7,5,13,3,17,1.
4. Aniq fanlardan biri, hisob ilmi – 4,1,7,16,4,1,7,3,8,1.
5. Burchak yoki aylana yo'yining o'lchov birligi – 18,1,13,1,14,1.
6. Gapga qo'shimcha ma'no berishda qo'llaniladigan so'z turkumi –17,9,8,11,1,4,1.
7. Aqliy sport o'yini donasi –21,5,12.
8. Yozuv quroli –22,1,11,1,4.

Endi kalit so'zlari javoblari asosida shaklning ichki qismlaridagi raqamlarni mos harflar bilan almashtirib, muammonomani hal eting. Bunda ulardan yo'nalishlar bo'yicha o'qish bilan O'zbekiston xalq shoiri Habibiy qalamiga mansub to'rt misra hikmatni bilib olasiz.

Foziljon ORIPOV tuzdi
Gazetaning mazkur soni Osimxon Vosixonov
chizgan rasmlar bilan bezatildi



Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatiga
qarashli bo'lgan Xalqaro xayriya jamg'armasi.

BOSH MUHARRIR:
To'lqin HAYITOV

Dizaynerlar:
Fazliddin
SHOYODGOROV,
Olovuddin
ORIPOV
Navbatchilar:
Axtamqul KARIM,
Yusuf ABDULLAYEV

Gazeta
O'zbekiston
Matbuot va
axborot
agentligida
0208-raqam
bilan 2007-yil
2-fevralda
ro'yxatdan
o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Avaz MARAHIMOV,
Svetlana INOMOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Odina JAMOLDINOVA,
Jabbor RAZZOQOV,
Murtazo SULTONOV,
Feruz JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruz ADILOVA
(mas'ul kotib),
Dilmurod RAHMATILAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA

Manzilibiz:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@bk.ru
www.tongyulduzi.uz
Tel: 244-27-25, 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»
NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,
mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni
chiqadi. Shakli A-3,
2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi - 32906
Buyurtma N: J 15